

## **XITAZON TARKIBLI POLISAHARIDLARNING TERI LEYSHMANIOZINI DAVOLASHDA QO‘LLANILISHI**

*Normurodova G.Sh., Sattarova X.G.*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi L.M. Isaevy nomidagi mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti*

**Dolzarbligi.** Teri leyshmaniozi (TL)– leyshmaniyalar tomonidan qo‘zg‘atiladigan terining polimorf kasalligi bo‘lib, har xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin, ya‘ni: teri qoplamida yallig‘langan yoki yarasiz yakka-yakka yoki ko‘p tugunchali zararlangan joylari bo‘lishi mumkin. Teri leyshmanioz kasalligiga eng xos bo‘lgan belgi - bu yaralarning uzoq vaqt bitmasligidir. Teri leyshmaniozi antropoz va zoonoz turlari ko‘rinishida kechadi. O‘zbekistonda teri leyshmaniozining har ikkala turini uchratish mumkin. Ko‘pincha leyshmaniomalar yuz, qo‘l va oyoqning ochiq joylarida joylashadi, kam uchraydigan holatlarda badanda ham bo‘lishi mumkin va bitganda chandiq hosil bo‘ladi. Yaralarning chandiqsiz, tekis va tez bitishi ta‘minlaydigan davolash algoritmini ishlab chiqish, samarali preparatlarni topish nafaqat parazitolog shifokorlar balki teri kasalliklari shifokorlari uchun ham juda muhimdir. Bir qancha olimlar tomonidan xitazonning teri leyshmaniozini davolashda xavfsiz va samarali vosita ekanligi tasdiqlangan.

**Tadqiqot maqsadi:** Teri leyshmaniozini davolashda xitazon samaradorligini baholashga oid dunyoda amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqot davomida bir nechta biokimyoviy tahlillar, klinik farmakologik usullardan foydalanib teri leyshmaniozini davolashga oid tadqiqot ishlari o‘rganib chiqilgan bo‘lib, xitazonning olinish va organizmdagi biokimyoviy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilingan.

**Tadqiqot natijalari bo‘yicha tahlillar.** 2018 yilda Eronda olib borilgan tadqiqotlardan birida, past molekulyar og‘irlikdagi xitosanning 95% deatsetillanish darajasi bilan zoonoz teri leyshmaniozi ya‘ni L.major shtammi bilan kasallangan bemorlarni davolashdan so‘ng teridagi yaralarning o‘rtacha hajmini sezilarli darajada kamayganligi isbotlangan.

Amfoterisin B (AmB) leyshmaniozga qarshi faol vositadir, ammo uning yuqori toksikligi tufayli uni qo‘llash bo‘yicha bir qancha qarshi ko‘rsatmalar mavjud. Nano o‘lchamdagi xitazonning AmB formulasi yaralarning to‘liq bitishi bilan birga jarohatlarning sezilarli darajada kamayishiga olib kelishi hindistonlik olimlar ([Fahimeh Abdullohimajd](#), [Hamide Moravvej](#) 2019 yil) olimlar tomonidan isbotlangan.

**Xulosa.** Demak, xitazonning qo‘llanilishi va ta‘sir mexanizmi kimyoviy tuzilishiga bog‘liq bo‘lib, xitazon epitily sirtlari bo‘ylab dorilarni yaxshi tashiydigan, antileyshmaniyal xususiyatga ega bo‘lgan, biomaslashuvchan polimerdir. Xitazonning o‘ziga xos antileyshmanial faolligi va immunomodulyatsion ta‘siri tufayli yakka o‘zi yoki antileyshmanial dorilar bilan birgalikda yaralarga ta‘sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.